

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ XO‘JALIGI VA  
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

**OSPA NOV ASEMXAN KADIRXANOVICH**

**PO‘LATI RANG-BARANGLIKDAGI QORAQALPOQ SUR QORAKO‘L  
QO‘YLARINING NASL VA MAHSULDORLIK XUSUSIYATLARI**

**06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
сельскохозяйственным наукам**

**Abstract of the dissertation of doctor of philosophy (PhD)  
in agricultural sciences**

**Ospanov Asemxan Kadirxanovich**

По‘лати rang-baranglikdagi qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘ylarining nasl va mahsuldorlik xususiyatlari ..... 3

**Оспанов Асемхан Кадирханович**

Племенные и продуктивные особенности каракульских овец каракалпакского сура стальной расцветки ..... 19

**Ospanov Asemkhan Kadirxanovich**

Breeding and productive features of Karakul sheep of the Karakalpak sura of steel colors ..... 37

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published work ..... 41

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**QORAQALPOG'ISTON QISHLOQ XO'JALIGI VA  
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

**OSPA NOV ASEMXAN KADIRXANOVICH**

**PO'LATI RANG-BARANGLIKDAGI QORAQALPOQ SUR QORAKO'L  
QO'YLARINING NASL VA MAHSULDORLIK XUSUSIYATLARI**

**06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi**

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Qx877 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi [www.tdau.uz](http://www.tdau.uz), Milliy axborot agentligi va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Turganbaev Ruzimbay Urazbayevich**  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Gaziyev Adxam**  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

**Boymatov Otabek Saboxiddin o'g'li**  
qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti**


Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "19" 08 soat 14<sup>00</sup> dagi majilisi bo'lib o'tadi. (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2 uy. tel: (+99871) 260-48-00; faks: (+99871) 260-38-60; e-mail: [tuag-info@edu.uz](mailto:tuag-info@edu.uz)) Toshkent davlat agrar universiteti ma'muriy binosi, 2-qavat, anjumanlar zali).


Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (553510-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. ToshDAU ARM binosi, 1-qavat. Tel: (+99871) 260-50-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "31" 07 kuni tarqatildi.  
(2025 yil "26" 06 dagi 15 raqamli reestr bayonnomasi)



  
**Sh.R.Umarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
q.x.f.d., professor

  
**Sh.A.Abdurasulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, v.f.d., dotsent

  
**Q.J.Shakirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, q x f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Bugungi kunda dunyoning 190 dan ortiq davlatlarida 570 dan ortiq madaniy qo‘y va echki zotlari urchitib ko‘paytirib kelinmoqda. «... dunyo bo‘yicha qo‘ylarning bosh soni 1 mlrd 867 mln 875 ming boshni, echkilar esa 826 mln 482 ming boshni tashkil etmoqda». Ushbu holat, qo‘y va echkilarning ko‘p sonliligi va keng tarqalishi bu turdagi hayvonlarning yuqori xo‘jalik va iqtisodiy qiymati bilan izohlanadi. Qo‘y va echkichilik xalq xo‘jaligini muhim yo‘nalishi hisoblanib aholini jun, po‘stinbop va mo‘ynabop qo‘y terisi, shirdon bilan ta‘minlash bilan bir qatorda aholini go‘sht, sut, yog‘ va boshqa mahsulotlarga bo‘lgan talabini qondirib kelmoqda. Ayniqsa qorako‘l qo‘y zotining yuqori yashovchanlik va moslashuvchanlik xususiyatlaridan samarali foydalangan holda ularni reproduktiv, mahsuldorlik hamda biologik xususiyatlarini yanada yuqori pog‘onalarga ko‘tarish orqali dunyo bozorini sifatli qorako‘l teri va jun mahsulotiga bo‘lgan talabini qondirish o‘ta dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Dunyoning qo‘ychilik sohasi rivojlangan davlatlarida qo‘ylarning go‘sht, sut, jun va mo‘ynobop teri mahsuldorligini oshirishning yangi usullarini ishlab chiqish va qo‘llash, sifatli mahsulot beruvchi qo‘y zotlari va zot tiplarini yaratish borasida bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan hozirgi kunda Rossiya Federatsiyasi hamda Qozog‘iston Respublikasi olimlari tomonidan an‘anaviy yaylov chorvachiligini qayta tiklash maqsadida tabiiy sharoitga yaxshi moslashgan, qorako‘l zotli qo‘ylarning yuqori mahsuldor tiplarini yaratish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. So‘nggi yillarda qorako‘l qo‘ylarining turli ekstremal tabiiy iqlim sharoitlariga moslashgan, nasl va mahsuldorlik xususiyatlari yuqori darajada bo‘lgan tiplarini yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikada bugungi kunda qoraqalpoq zot tipidagi sur qorako‘l qo‘ylarini genofondini saqlash, urchitish arealini kengaytirish hamda eksportbop sur qorako‘l terilar ishlab chiqarishni ko‘paytirish maqsadida ularni har xil ekologik sharoitlarga moslashtirish bilan birga mahsulot sifatini oshirish yo‘nalishida bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilib ijobiy natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «... 32-maqсад: Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,5-2 barobar oshirish. Chorva mollari bosh sonini ko‘paytirish va mahsuldorligini oshirish bo‘yicha yangi loyihalarni amalga oshirish...». Mazkur vazifalarning bajarilishini ta‘minlashda, po‘lati rang-baranglikdagi qoraqalpoq zot tipidagi sur qorako‘l qo‘ylarini irsiy xususiyatlarini avloddan-avlodga o‘tishi, qo‘zilarda sifat belgilarini namoyon bo‘lishi, jun mahsuldorligini shakllanishi, qo‘chqor qo‘zilarning o‘sish tezligi hamda biologik xususiyatlaridan foydalanib original rang-baranglikdagi sur qorako‘l qo‘ylarining bosh sonini ko‘paytirish va sifatli qorako‘l teri yetishtirishda resurstejamkor seleksiya usullaridan foydalanishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar salmog‘ini oshirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-martdagi PQ-3603-sonli “Qorako‘lchilik sohasini jadal rivojlantirish to‘g‘risida”gi, 2019-yil 16-avgustdagi PQ-4420-sonli “Qorako‘lchilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 2-sentyabrdagi PQ-4817-sonli “O‘zbekiston

Respublikasi Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorlari, 2020-yil 2-sentyabrdagi PF-6059-sonli “O‘zbekiston Respublikasida pillachilik va qorako‘lchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 2021-yil 9-fevraldagi PQ-4984-sonli “Qorako‘lchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustivor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Xorijiy va MDX davlatlari olimlari, qorako‘l qo‘ylarining serpushtlik imkoniyatlarini oshirish, sur qorako‘l qo‘ylarning irsiylanish xususiyatlari, qo‘ylarning har xil iqlim tabiiy sharoitlarga moslashuvchanligi, yashovchanligini tadqiq etish, qorako‘l qo‘ylarning sifatli qorako‘l teri berish bilan birga sifatli go‘sht va boshqa mahsulotlar berish qobiliyatiga ega bo‘lgan yangi tiplarini yaratish borasida V.V.Aboneev, B.A.Ajibekov, D.T.Alimbaev, A.Axmetshiev, K.A.Axmedov, M.Butayev, X.Djalalov S.Evtodienko, O.Mashner, O.Omarov, A.O.Ombayev, J.A.Parjanov, X.I. Ukbaev, T.Umurzakov, P.A.Salikbaev, R.Shamekenova va S.N.Shumaenkolar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

O‘zbekistonda Yu.Jumaniyazov, M.D.Zakirov, Q.D.Ochilov, S.Yu.Yusupov, N.A.Bobokulov, A.Gaziev, M.Sh.Ismoilov, R.U.Turganbayev, A.A.Urimbetov, A.X.Xatamov, D.M.Parmanova va boshqalar tomonidan qoraqalpoq sur zot tipidagi qorako‘l qo‘ylarni urchitishning seleksion-genetik asoslari, muhim tovar belgilarning irsiylanish va o‘zgaruvchanlik xususiyatlari, mahsuldorlik ko‘rsatkichlarining hayvonlar konstitutsiya tiplariga, saqlash sharoitlari va yaylov hosildorligiga bog‘liqligi, qo‘ylarni samarali seleksiyalashning ekologik va genetik asoslari, qoraqalpoq sur zot tipiga mansub qorako‘l qo‘ylarining adir sharoitida o‘sish va rivojlanishi va jun-tola sifati, qo‘ylarning etologik tiplari va etogramma ko‘rsatkichlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilib ijobiy natijalar olingan.

Ta’kidlash lozimki, hozirgi kunda qorako‘lchilik sohasida rangli terilarga ayniqsa sur rangli qorako‘l terilarga ichki va tashqi bozorlarda talab ortib bormoqda. Respublikamizda qorako‘lchilarning asosiy vazifasi sur zot tipidagi qimmatbaho qorako‘l teri beruvchi qo‘ylarning bosh sonini ko‘paytirish bilan bir qatorda, ularning ixtisoslashtirilgan podalarini yaratishdan iborat. Shu bois, po‘lati rang-baranglikdagi qoraqalpoq sur zot tipidagi qorako‘l qo‘ylarning nasl va mahsuldorlik xususiyatlarini tadqiq qilish, qo‘ylarining irsiy salohiyatidan foydalanib original rang-baranglikdagi eksportbop qorako‘l terilarini ishlab chiqarishni ko‘paytirish tarmoqning samaradorligini oshirishda, fermer xo‘jaliklarining raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №001245 raqamli “Qorako‘l zotli qo‘ylarning nasliy

imkoniyatlaridan foydalanishning samarali tizimini ishlab chiqish” (2015-2020 yy.), Qoraqalpog‘iston Respublikasi To‘rtko‘l tumani “Qizilqum qorako‘lchilik markazi”ning istiqbolli seleksiya naslchilik ishi rejasi doirasida bajarildi (2019-2021 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi.** Po‘lati rang-baranglikdagi qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘ylarining nasldorlik va mahsuldorlik salohiyatini oshirish hamda maqsadga muvoffiq rang-baranglikdagi qo‘zilar olish salmog‘ini ko‘paytirish yo‘llarini aniqlash tadqiqot maqsadi hisoblanadi.

**Tadqiqotning vazifalari:**

po‘lati rang-baranglikdagi sur qorako‘l qo‘ylarining o‘sinh va rivojlanish xususiyatlarini aniqlash;

po‘lati rang-baranglikdagi sur qorako‘l qo‘ylari nasl xususiyatlarining avlodlarda namoyon bo‘lish darajalarini o‘rganish;

po‘lati rang-baranglikdagi sur qorako‘l qo‘zilarida barra teri belgilarining namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlash;

po‘lati rang-baranglikdagi sur qorako‘l qo‘ylarining jun mahsuldorligi hamda jun qoplaminig morfologik tarkibini aniqlash;

po‘lati rang-baranglikdagi sur qorako‘l qo‘zilarining o‘sinh tezligi omilidan ratsional foydalanish asosida naslli qo‘chqorlar yetishtirish jarayonini jadallashtirish;

po‘lati rang-baranglikdagi sur qorako‘l qo‘ylarini urchitishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning ob‘ekti** sifatida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ellikqal‘a tumani “Chori surchi” fermer xo‘jaligida urchitiluvchi qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘ylarining po‘lati, shamchiroqgul, o‘rikgul va qamar rang-barangliklaridagi qo‘chqorlar, sovliqlar, qo‘zilar, qorako‘l terilari va qo‘y juni namunalari hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** bo‘lib qoraqalpoq zot tipidagi po‘lati rang-baranglikdagi qo‘ylar qorako‘l sifatining irsiylanish xususiyatlari, qo‘zilarning o‘sishi va rivojlanishi, mahsuldorlik ko‘rsatkichlari va po‘lati rang-baranglikdagi qo‘zilar salmog‘ini oshirishda samarali innovatsion usullarini aniqlash orqali original rang-baranglikdagi qorako‘l terilar ishlab chiqarishni ko‘paytirish hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Qorako‘l qo‘ylarining o‘sishi va rivojlanishi umumqabul qilingan uslublar yordamida aniqlandi. Qorako‘l qo‘zilarini barra teri xususiyatlari bo‘yicha baholash “Qorako‘lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo‘zilarni baholash (bonitirovka qilish) bo‘yicha qo‘llanma” (2015) asosida, qorako‘l terilar, uning sifati, tovar ko‘rsatkichlari quritilgan holatda Diyachkov I.N va boshqalarning “Методика изучения качества каракуля” (1963) qo‘llanmasi asosida, jun mahsuldorligini, jun qirqimi miqdorini laboratoriya tarozisida tortish, tola uzunligini millimetrli lineykada o‘lchash, toza jun chiqimi, morfologik tarkibini junni fraksiyalarga ajratish (tivit, oraliq tola va qiltiq) orqali GOST-8439-57 talablari asosida o‘rganilib, olingan ma‘lumotlarga variatsion statistik ishlov berish Ploxinskiy N.A “Руководство по биометрии для зоотехников” (1969) qo‘llanmasi asosida amalga oshirildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

ilk bor Qoraqalpoq zot tipiga mansub po‘lati sur rang-baranglikdagi qorako‘l qo‘ylarining nasl va mahsuldorlik ko‘rsatkichlari kompleks ravishda o‘rganilib,

ularning namoyon bo'lish darajalari aniqlangan;

po'lati sur rang-baranglikdagi qo'ylar avlodlarida ushbu rang-baranglikning namoyon bo'lishini 73,7 foizgacha yetkazish imkoniyatlari aniqlangan;

po'lati rang-baranglikdagi qo'chqorlarda belgilarni naslga mustahkam o'tkaza olishi hisobiga gomogen juftlashdan olingan avlodlarda sur rangining a'lo darajada ifodalanishi 22,8% ga yetishi aniqlangan;

po'lati rang-baranglikdagi qo'chqorlarda gul ko'rsatkichlarining naslga mustahkam berilishi hisobiga gomogen juftlashdan olingan avlodlarning 12,3% elita va 57,9% birinchi sinfga ega bo'lishi aniqlangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani sharoitida po'lati sur rang-baranglikdagi qorako'l qo'ylarining nasliy va mahsuldorlik ko'rsatkichlari boshqa rang-barangliklarga qaraganda yuqori darajaga yetishi aniqlangan;

po'lati sur rang-baranglikdagi qo'ylarni gomogen juftlashda geterogen juftlashga nisbatan nasliy imkoniyatlarining ortishi va shu hisobiga po'lati sur rang-baranglikka mansub qo'zilar salmog'ining oshishi aniqlangan;

po'lati rang-baranglikdagi qo'chqorlar avlodlarida belgilarning namoyon bo'lishining kuchayishi hisobiga gomogen juftlashdan olingan avlodlarda sur rangining sifat ko'rsatkichlari, jumladan rangning a'lo ifodalanishi boshqa juftlash variantlariga nisbatan yuqori bo'lishi aniqlangan;

po'lati rang-baranglikdagi qo'chqorlar avlodlarida gul ko'rsatkichlarining naslga mustahkam berilishi hisobiga gomogen juftlashdan olingan avlodlarning asosiy qismi yuqori sinfga ega bo'lishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Dissertatsiya tadqiqotlarida zamonaviy uslublardan foydalanilganligi, uning natijalari va bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida olingan birlamchi ma'lumotlarga biometrik ishlov berilganligi, olib borilgan tajriba ishlariga Qishloq xo'jaligi vazirligi va Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti aprobat siya komissiyasi tomonidan ijobiy baho berilganligi, olingan ilmiy-tadqiqot natijalari ishlab chiqarishga joriy qilinganligi dalolatnomalar bilan tasdiqlanganligi, ilmiy-tadqiqot natijalari nufuzli ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarda chop qilinganligi bilan asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, po'lati rang-baranglikdagi qoraqalpoq sur qorako'l qo'ylarining nasl va mahsuldorlik xususiyatlarini majmuaviy o'rganish asosida original rang-baranglikdagi qorako'l terilar ishlab chiqarishni ko'paytirish usullarini ishlab chiqish, po'lati sur rang-baranglikdagi qo'chqor qo'zilarining o'sish tezligi omilidan foydalanib naslli qo'chqorlarni yetishtirishni jadallashtirish usullari, jun mahsuldorligi, o'sish va rivojlanish xususiyatlari, irsiylanish va o'zgaruvchanlik xususiyatlariga tavsif berilganligi hamda Ellikqal'a tumani sharoitida po'lati rang-baranglikdagi qoraqalpoq sur qorako'l qo'ylarini urchitishning ilmiy asoslangan samarali usullari tavsiya etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati po'lati sur rang-baranglikdagi qoraqalpoq sur qorako'l qo'ylarining mahsuldorlik xususiyatlarini o'rganish asosida, urchitish tajribalari isbotlanganligi, qo'chqor qo'zilarining o'sish tezligi omilidan foydalanib naslli qo'chqorlarni yetishtirishni jadallashtirish usullari ishlab

chiqilganligi, jun mahsuldorligiga baho berilganligi, po‘lati rang-baranglikdagi qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘ylarining teri yetishtirishda va jun ishlab chiqarishda foydalanishning iqtisodiy samaradorligi aniqlanganligi va amaliyotga tavsiya etilganligi bilan ifodalanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Po‘lati rang-baranglikdagi qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘ylarining nasl va mahsuldorlik xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

po‘lati rang-baranglikdagi qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘chqorlarining irsiyatini turli juftlash variantlari bo‘yicha baholash usuli Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ellikqal‘a tumani “Chori surchi” fermer xo‘jaligida joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2024-yil 28-dekabrda 33/01-05-1138-son ma‘lumotnomasi). Natijada po‘lati rang-baranglikdagi qo‘ylarni gomogen juftlashdan olingan avlodlarda rang-baranglikning irsiylanishi 73,7% ni, sur rangining a‘lo ifodalanishi 22,8% ni, elita sinfiga mansub qo‘zilar 12,3% ni va 57,9% birinchi sinfga ega bo‘lishi aniqlanib, 1 dona qorako‘l terisini sotishdan olingan daromad 19,2 ming so‘mga ko‘payib, rentabellik darajasi 8,4 foizga oshgan.

po‘lati rang-baranglikdagi qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘ylarining qorako‘l teri xususiyatlarini va nasl salohiyatini oshirish usuli Qoraqalpog‘iston Respublikasi Taxtako‘pir tumani “Qorako‘lchilik ilmiy-naslchilik tajriba stansiyasi”da joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2024-yil 28-dekabrda 33/01-05-1138-son ma‘lumotnomasi). Natijada po‘lati rang-baranglikdagi qorako‘l qo‘ylarini gomogen juftlashdan olingan avlodlarda elita sinfiga mansub qo‘zilar 11,6% ni va 58,2% birinchi sinfga ega bo‘lishi aniqlanib, 1 dona qorako‘l teri yetishtirishdan olingan sof foyda 18,5 ming so‘mga, rentabellik darajasi esa rang-baranglik kesimida 8,0 foizga oshgan.

po‘lati sur rang-baranglikdagi qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘ylarining biologik, nasl va mahsuldorlik salohiyatini oshirish usuli Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ellikqal‘a tumani “Amirobod suri” fermer xo‘jaligida joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2024-yil 28-dekabrda 33/01-05-1138-son ma‘lumotnomasi). Natijada po‘lati sur qorako‘l qo‘ylaridan 1 dona qorako‘l teri yetishtirishdan olingan sof foyda 18,0 ming so‘mga, rentabellik darajasi esa rang-baranglik kesimida 7,8 foizga oshgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ellikqal‘a tumani “Chori surchi” fermer xo‘jaligining ishlab chiqarish yig‘ilishlarida (2020-2022 yy.), Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutining aprobatsiya komissiyasida (2020-2022 yy.), “Zooinjeneriya va veterinariya” kafedrasining hisobot yig‘ilishlarida (2020-2022 yy.) hamda 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 7 ta, shu jumladan xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamida 4 ta, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta, shundan 1 ta xorijiy nashrlarda ilmiy maqolalar chop etilgan.

**Dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 112 betdan iborat.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmeti yoritilgan, O'zbekiston respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga, ilmiy muassasaning tematik rejasiga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati, natijalarni amaliyotga joriy etish, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning "**Adabiyotlar sharhi**" deb nomlangan birinchi bobida qoraqalpoq sur qo'ylarining kelib chiqishi, qo'ylarning biologik xususiyatlarini yaxshilashda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, sur rangli qo'ylar mahsuldorligini oshirishda respublika olimlarining ilmiy adabiyotlari tahlil qilingan va tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqot manbai va usullari**" deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot manzili va manbai, tadqiqot sxemasi va usullari yoritilgan.

Tadqiqot ob'ekti sifatida "Chori surchi" fermer xo'jaligida urchitiluvchi qoraqalpoq sur qorako'l qo'ylarining po'lati, shamchiroq, o'rikgul va qamar rang-barangliklaridagi qo'chqorlar, sovliqlar, qo'zilar, qorako'l terilari va qo'y juni namunalari olingan. Xo'jalikda foydalaniladigan juftlash usullaridan olingan avlodlarni ayrim biologik hamda nasl va mahsuldorlik xususiyatlari baholandi. Tadqiqotlar davomida tajribadagi qoraqalpoq sur qorako'l qo'ylarining yosh dinamikasida tirik vazni, ekstereri, tana tuzilish indeksleri, tirik vaznning mutlaq o'sishi, klinik ko'rsatkichlari, qonning morfologik tarkibi, rang-baranglikning namoyon bo'lishi, terining tovar xususiyatlari, jun tola qoplaminig sifat ko'rsatkichlari, gullarning uzunligi, kengligi, mustahkamligi, teri sathi, og'irligi, qalinligi, gullarning joylashishi, jun tola uzunligi, rangning ifodalanishi, rangning o'tish keskinligi va tekisligi, sinfi, jun mahsuldorligi, tadqiqot natijalarining iqtisodiy samaradorligini aniqlashda foydalanilgan usul va uslublar bayon qilingan.

Dissertatsiyaning "**Qorako'l qo'ylarining biologik xususiyatlari**" deb nomlangan uchinchi bobida tajribadagi sur qo'zilar tirik vaznining yoshi dinamikasida o'zgarishi, mutlaq va kunlik o'sish ko'rsatkichlari, tana o'lchamlari va tana tuzilishi indeksleri, konstitutsional xususiyatlari, fiziologik ko'rsatkichlari va qonning morfologik tarkibi bayon qilingan.

Dissertatsiyaning "**Po'lati sur rang-baranglikdagi qorako'l qo'ylarining mahsuldorlik xususiyatlari**" deb nomlangan to'rtinchi bobida xo'jalikda foydalaniladigan juftlash variantlari natijasida rang-baranglikning avlodga o'tish xususiyatlari, teri-tovar xususiyatlari, jun-tola qoplaminig sifati, gul, rang va rang-baranglik ko'rsatkichlari, jun mahsuldorligi va tadqiqot natijalarining iqtisodiy samaradorligi bayon qilingan.

Tajribadagi qo'ylarning tirik vazni va uning yosh dinamikasida o'zgarishi natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

**1-jadval**

**Qo'ylarning tirik vazni va uning yosh dinamikasida o'zgarishi**

Yoshi	Bosh soni	Jinsi			
		Erkak		Urg'ochi	
		X±Sx	C <sub>v</sub> ,%	X±Sx	C <sub>v</sub> ,%
Tug'ilganida	61	3,27±0,08*	11,9	3,08±0,05	9,1
5-oylikda	59	23,48±0,45*	10,1	22,23±0,38	9,6
12-oylikda	54	29,54±0,58*	10,3	28,76±0,58	10,4
18-oylikda	52	34,89±0,74*	11,1	32,81±0,73	11,1

\*P < 0,001

1-jadval ma'lumotlari tahlilidan, tug'ilgan davrda erkak qo'zilar tirik vazni 3,27 kg, urg'ochi qo'zilarniki 3,08 kg tashkil etib, 0,19 kg yoki 5,81% (P<0,001) yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi, 5-oylik davrida erkak qo'zilar tirik vazni 23,48 kg, urg'ochi qo'zilarda 22,23 kg bo'lib, erkak qo'zilar 1,25 kg yoki 5,32% (P<0,001) yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi, 12-oylik yoshida erkak qo'zilar tirik vazni 29,54 kg, urg'ochi qo'zilarda 28,76 kg ni tashkil qilib, urg'ochi qo'zilarga nisbatan 0,78 kg yoki 2,64% (P<0,001) erkak qo'zilar ustunligi aniqlandi. 18-oylik davrida erkak qo'zilar tirik vazni 34,89 kg, urg'ochi qo'zilarda 32,81 kg ni tashkil etib, erkak qo'zilarning urg'ochi qo'zilarga nisbatan 2,08 kg yoki 5,96% (P<0,001) yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi.

Bizning tajriba natijalarida aniqlangan mutlaq o'sish ma'lumotlari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

**2-jadval**

**Mutlaq o'sish ko'rsatkichlari**

Yoshi	Bosh soni	Jinsi			
		Erkak		Urg'ochi	
		X±Sx	C <sub>v</sub> ,%	X±Sx	C <sub>v</sub> ,%
Tug'ilganidan 5 oylik davrigacha mutlaq o'sish, kg.	59	20,21±0,38	9,9	19,14±0,34	10,0
5 oylik davridan 12-oylikgacha mutlaq o'sish, kg.	54	6,06±0,12*	10,4	6,51±0,13	10,1
12 oylikdan 18 oylikgacha mutlaq o'sish, kg.	52	5,35±0,12*	11,2	4,04±0,09	10,9
Tug'ilganidan 18 oylikgacha mutlaq o'sish, kg.	52	31,62±0,43*	7,1	29,76±0,50	8,3

\*P < 0,001

2-jadval ma'lumotlaridan aniqlanishicha, yangi tug'ilgan erkak qo'zilarning 5-oylik davrigacha mutlaq o'sish ko'rsatkichlari, 20,21 kg ni, urg'ochi qo'zilarniki esa 19,14 kg tashkil etib, urg'ochi qo'zilarga nisbatan 1,07 kg yoki 5,29% (P<0,001) yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi. 12-oylik davridan 18 oylikgacha

oraliqda erkak qo'zilar mutlaq o'sishi 5,35 kg bo'lgan bo'lsa, urg'ochi qo'zilarda esa, 4,04 kg ni tashkil qilib, urg'ochi qo'zilarga nisbatan 1,31 kg yoki 24,48% ( $P<0,001$ ) yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi di. Shunga mos ravishda tug'ilganidan 18 oylikgacha bo'lgan oraliqda mutlaq o'sish erkak qo'zilarda 31,62 kg ni, urg'ochi qo'zilarda bo'lsa 29,76 kg ni tashkil qilib, erkak qo'zilar urg'ochi qo'zilarga nisbatan 1,89 kg yoki 5,88% ( $P<0,001$ ) yuqori bo'lishi kuzatildi.

3-jadvalda qoraqalpoq sur qorako'l qo'ylarni rang-barangligi bo'yicha gomogen va geterogen juftlashda rang-baranglikning avlodlarida namoyon bo'lishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

### 3-jadval

#### Geterogen va gomogen juftlashda rang-baranglikning avlodlarda namoyon bo'lishi, % hisobida


Olingan avlodlar rang-barangligi	Juftlash xili			
	PSxShG	PSxO'G	PSxPS	PSxQS
Olingan avlodlar soni	73	81	57	54
Shamchiroqgul	41,1±5,76	6,2±2,68	10,5±4,06	-
O'rikgul	2,7±1,89	42,0±5,48	3,5±2,43	
Po'lati sur	47,9±5,84	44,4±5,52	73,7±5,83	40,7±6,68
Qamar sur	-	1,2±1,21	-	44,4±6,76
Shabdar	4,2±2,34	2,5±1,73	3,5±2,43	5,6±3,12
Chaqir	2,7±1,9	2,5±1,73	5,3±2,96	-
Boshqalar	1,4±1,37	1,2±1,21	3,5±2,43	3,7±2,56

\*ShG-shamchiroq gul, O'G-o'rik gul, PS-po'lati sur, QS-qamar sur

3-jadvalda ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, gomogen juftlashda po'lati sur qo'chqorlar bilan po'lati sur sovliq qo'ylardan 73,7 % po'lati sur avlodlar olinib, bu ko'rsatkich po'lati sur qo'chqorlarni o'rikgul qo'ylar bilan juftlanganda 44,4% ni tashkil qilgan bo'lsa, shamchiroqgul x po'lati surda 47,9%, qamar sur x po'lati surda esa, 40,7% ni tashkil qildi. Shuningdek, po'lati sur qo'chqorlarni boshqa rang-baranglikdagi qo'ylar bilan juftlashda ma'lum darajada shamchiroqgul (qamardan tashqari), o'rikgul, shabdar va chaqir rang-baranglikdagi qo'zilar olinadi. Po'lati sur qo'chqorlarni o'rikgul rang-baranglikdagi qo'ylar bilan juftlashda 1,2% qamar sur rang-baranglikdagi qo'zilar olindi. Bu holat, o'rikgul rang-baranglikdagi qo'zilarda terisi uch xil zonallikda joylashganligi, ya'ni jun tolasining o'rta bo'limi qizg'ish-qo'ng'ir rangdan iborat bo'lib, bu rangning avlodga berilishi saqlab qolingani darak beradi.

Qoraqalpoq sur zot tipidagi qorako'l qo'ylarini rang-barangligi bo'yicha gomogen va geterogen juftlashdan olingan avlodlarda yarim doira qalam gul tipdagi terilarning taqsimlanishi bo'yicha ma'lumotlar 1-rasmda keltirilgan.

Olingan natijalar shundan dalolat beradiki, po'lati sur rang-baranglikdagi qo'ylarni rang-barangligi bo'yicha gomogen juftlashda 66,7% yarim doira qalamgul tipli qo'zilar olinishi kuzatilgan.



**1-rasm. Turli juftlashda yarim doira qalam gul tipdagi qo‘zilarning taqsimlanishi**

Bu ko‘rsatkich qamar sur qo‘ylarini po‘lati sur qo‘chqorlar bilan juftlashga nisbatan olingan avlodlar miqdoridan 13,0% ga, o‘rikgul va shamchiroqgul rang-barangli qo‘ylarda olingan avlodlardan 5,0 va 2,3% ga ko‘pdir. Bundan xulosa qiladigan bo‘lsak, olingan avlodlarda teri gul tipining taqsimlanishida, ya’ni qimmatli gul tipidagi qorako‘l terilar olish darajasiga juftlash usullari ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi.

Po‘lati sur rang-baranglikdagi terilarda gullar naqshi ya’ni gullarning teri sathida joylashishining teri gul tipiga bog‘liqligini 4-jadvaldan ko‘rish mumkin.

**4-jadval**

**Gullarning teri sathida joylashishining teri gul tipiga bog‘liqligi, % (X±Sx)**


Gul naqshlari	Teri gul tiplari, (n=30)			
	Yarim doira qalam gul tip	Qovurg‘asimon qalam gul tip	Yassi qalam gul tip	O‘sik gulli tip
Yondosh - konsentrik	70,0±8,4	13,3±6,2	6,7±4,56	10,0±5,48
Yondosh - to‘g‘ri	6,7±4,56	46,6±9,11	43,3±9,05	3,4±3,31
Aralash	10,0±5,48	3,4±3,31	10,0±5,48	76,6±7,73

Tajriba ma’lumotlari natijalari shuni ko‘rsatadiki, yondosh-konsentrik naqsh, yarim doira qalam gul tipidagi terilarda 70,0±8,4% ni tashkil qilgan bo‘lsa, yondosh-to‘g‘ri naqsh qovurg‘asimon qalamgul va yassi qalamgul tipdagi terilarda 89,9% ni, gullarning aralash naqshi esa o‘sik gulli tipidagi terilarda 76,6±7,73% ni, yarim doira qalam gul tipdagilarada esa, 10,0±5,48% ni tashkil qildi.

Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, yondosh - konsentrik naqsh asosan yarim doira qalam gul tipidagi terilarga xos bo‘lib, yondosh - to‘g‘ri gul naqshlarining joylashishi esa qovurg‘asimon qalam gul tipiga va yassi qalam gul teri tipidagilarada uchrasa, gullarning aralash joylashuvi ko‘pincha o‘sik gulli tipdagi terilarga xosdir.

Po‘lati rang-baranglikdagi qorako‘l qo‘zi terilarida surlik darajasining yillar kesimida o‘zgarishi 2-rasmda keltirilgan. Rasm ma’lumotlaridan shuni tahlil qilish mumkinki, po‘lati rang-baranglikdagi qorako‘l qo‘ylarini gomogen juftlashdan

olingan avlodlarida 3/10 va 4/10 surlik darajasidagi hayvonlarning yillar kesimida oshib borishini tajriba ishlari davomida kuzatdik.



**2-rasm. Po‘lati sur rang-baranglikdagi qorako‘l qo‘ylarini gomogen juftlashda yillar kesimida surlik darajasining o‘zgarishi ko‘rsatkichlari**

Shu bilan birga, 5/10 surlik darajasidagi avlodlarning ham sezilarli darajada oshib borishi kuzatildi, ya‘ni 2020 yilda bu ko‘rsatkichga ega avlodlar 13,7% bo‘lgan bo‘lsa, 2021 yilda 18,3%, 2022 yilda esa 21,5 ni tashkil qildi. Surlik darajasi 3/10 va 4/10 bo‘lgan avlodlar mos ravishda 27,4 %; 24,6 %; 31,8 % (2-rasmga qarang) hamda 45,2 %; 48,0 %; 40,7 % bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda, po‘lati sur qorako‘l qo‘ylarini qimmatligini saqlovchi 3/10 va 4/10 bo‘lgan surlik darajasini va gullarning jozibadorligini saqlash maqsadida har-bir 4-5 yilda po‘lati sur rang-baranglikdagi qorako‘l qo‘ylarini elita sinfli, gul sifati bo‘yicha tanlangan qoraqalpoq suri rang-barangliklarining to‘q variyatsiyalaridagi yarim doira qalamgul tipidagi qorako‘l qo‘chqorlari bilan juftlashni tavsiya qilamiz.

Qoraqalpoq sur qo‘zilarida sur rangining ifodalanish darajasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarimizning natijasi 5-jadvalda keltirilgan.

**5-jadval**

**Yangi tug‘ilgan (1-3 kun) qo‘zilarida sur rangining ifodalanishi, (X±Sx)**

Juftlash xili	Qo‘zilar soni	Sur rangining ifodalanishi, %		
		A‘lo	O‘rta	Past
PSxShG	73	20,5±4,72	74,0±5,13	5,5±2,66
PSxO‘G	81	19,7±4,42	70,4±5,07	9,9±3,31
PSxPS	57	22,8±5,55	70,2±6,05	7,0±3,38
PSxQS	54	18,5±5,28	68,5±6,32	13,0±4,57

5-jadvalda keltirilgan ma‘lumotlarda, sur qo‘zilarning asosiy seleksiya ko‘rsatkichlari bo‘lgan sur rangining ifodalanish darajasi bo‘yicha farqlanishlar kuzatildi, bunda a‘lo ifodalanish darajasi bo‘yicha PSxPS juftlashdan olingan avlodlarda 22,8±5,55% ni tashkil qilgan bo‘lsa, PSxShG juftlashdan olingan avlodlarga nisbatan 2,3% ga, PSxO‘G juftlashdan olingan avlodlarga nisbatan 3,1% ga va PSxQS juftlashdan olingan avlodlarga nisbatan 4,3% ga ko‘p ekanligi aniqlandi. Sur rangining ifodalanishining past ko‘rsatkichi 13,0±4,57 PSxQS juftlashdan olingan avlodlarda qayd qilindi. Bu holat bizning fikrimizcha po‘lati

sur va qamar sur rang-barangli qo‘ylardan olingan avlodlar jun tolasida qora rangdan qo‘ng‘ir yoki qizg‘ish rangga o‘tish hollari uchraydi, shu bois, ifodalanish darajasi qamar rang-baranglikda birmuncha sust kechadi.

Qorako‘l terisida sur rangining ifodalanish darajasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan muhim ko‘rsatkichlardan biri sur rangining o‘tish keskinligi hisoblanadi.

Xo‘jalikda qo‘llaniladigan juftlash variantlari natijasida olingan avlodlarida sur rangining o‘tish keskinligining namayon bo‘lishi bo‘yicha tajriba ishimiz natijalari quyidagi 6-jadvalda keltirilgan.

**6-jadval**

**Yangi tug‘ilgan (1-3 kun) qo‘zilar ranglarining o‘tish keskinligi, % ( $X \pm S_x$ )**

Juftlash xili	Qo‘zilar soni	O‘tish keskinligi		
		Kuchli	O‘rta	Kuchsiz
PSxShG	73	37,0±5,65	58,9±5,76	4,1±2,32
PSxO‘G	81	32,1±5,18	61,7±5,4	6,2±2,68
PSxPS	57	38,6±6,45	57,9±6,54	3,5±2,43
PSxQS	54	27,8±6,09	59,2±6,68	13,0±4,57

6-jadvalda keltirilgan tajriba natijalari ma‘lumotlaridan, rangning o‘tish keskinligi ko‘rsatkichi bo‘yicha turli juftlashdan olingan qo‘zilar orasida farqlanishlar mavjuddir.

PSxShG, PSxO‘G, PSxPS va PSxQS juftlashdan olingan avlodlarda rangning o‘tish keskinligining a‘lo darajasi shunga mutanosib ravishda 37,0±5,65, 32,1±5,18, 38,6±6,45 va 27,8±6,09% ga teng bo‘ldi. Rangning o‘tish keskinligi kuchsiz ko‘rsatkichga ega bo‘lgan avlodlar PSxQS juftlashdan olingan avlodlarda (13,0±4,57%) kuzatildi. Bu ko‘rsatkich PSxO‘G juftlashda 6,2±2,68% ni, PSxShG juftlashda esa, 4,1±2,32% bo‘lgan bo‘lsa, PSxPS juftlashda (3,5±2,43%) tashkil qildi.

Sur rangli qo‘zi terisida rangning tekisligi terining qimmatli xossasi bo‘lib, terining navini va qiymatini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Yangi tug‘ilgan (1-3 kun) qo‘zilar sur rangining tekisligi bo‘yicha olib borilgan tajriba natijalari 7.-jadvalda keltirilgan.

**7-jadval**

**Yangi tug‘ilgan (1-3 kun) qo‘zilar ranglarining bir tekisligi, % ( $X \pm S_x$ )**

Juftlash xili	Qo‘zilar soni	Bir tekisligi		
		A‘lo	Tekis	Notekis
PSxShG	73	23,3±4,95	67,1±5,5	9,6±3,45
PSxO‘G	81	22,2±4,62	65,4±5,28	12,4±3,66
PSxPS	57	28,1±5,95	64,9±6,32	7,0±3,38
PSxQS	54	18,5±5,14	72,2±6,09	9,3±3,95

7-jadval ma‘lumotlardan shuni ko‘rish mumkinki, rang-barangligi bo‘yicha gomogen va geterogen juftlashdan olingan avlodlarda sur rangining tekisligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha farqlanishlar kuzatildi. Bunda rang tekisligining “a‘lo” darajasi ko‘rsatkichi bo‘yicha PSxPS juftlashdan olingan avlodlar ustunlik (28,1±5,95%) qildi. Bu ko‘rsatkich PSxShG juftlashda olingan avlodlarda 23,3±4,95% ni tashkil qilgan bo‘lsa, PSxO‘G avlodlarda 22,2±4,62% ga teng

bo'ldi. Terida rang tekisligining a'lo darajasi bo'yicha eng kam ko'rsatkich PSxQS juftlashdan olingan avlodlarda ( $18,5 \pm 5,14\%$ ) qayd etildi.

Xulosa tariqasida shuni aytish joyizki sur terilar jun tolasida qanchalik qizg'ish, qo'ng'ir ranglar aralashmasi ko'proq bo'lsa, terida sur rangining tekisligi salbiy tomonga o'zgarishi kuzatiladi.

Bizning tajriba natijalarida qoraqalpoq sur zot tipidagi qorako'l qo'ylarini rang-barangligi bo'yicha gomogen va geterogen juftlashdan olingan qo'zilarining sinflarga taqsimlanishi 8-jadvalda keltirilgan.

**8-jadval**

**Qoraqalpoq sur qo'zilarining sinfliligi, % ( $X \pm S_x$ )**

Juftlash xili	Qo'zilar soni	Elita	I sinf	II sinf	Yaroqsiz
PSxShG	73	$9,6 \pm 3,44$	$53,4 \pm 5,83$	$27,4 \pm 5,22$	$9,6 \pm 3,44$
PSxO'G	81	$8,6 \pm 3,11$	$44,5 \pm 5,52$	$39,5 \pm 5,43$	$7,4 \pm 2,9$
PSxPS	57	$12,3 \pm 4,35$	$57,9 \pm 6,54$	$24,5 \pm 5,7$	$5,3 \pm 2,96$
PSxQS	54	$3,7 \pm 2,56$	$35,2 \pm 6,5$	$48,1 \pm 6,8$	$13,0 \pm 4,57$

8-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qoraqalpoq sur qo'zilarining turli juftlashda sinflarga taqsimlanishida farqlanishlarni kuzatish mumkin. PSxPS juftlashdan olingan avlodlarda elita qo'zilar miqdori  $12,3 \pm 4,35\%$  ni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich PSxShG juftlashdan olingan avlodlarda gomogen juftlashdan olingan avlodlarga nisbatan  $2,7\%$  ga, PSxO'G juftlashdan olingan avlodlarda esa,  $3,7\%$  ga, PSxQS juftlashdan olingan avlodlarda  $8,6\%$  ga kam bo'lganligini ko'rish mumkin. Jadval ma'lumotlaridan PSxPS juftlashdan olingan avlodlarda I-sinf qo'zilar ulushi  $57,9 \pm 6,54$  bo'lgan bo'lsa, geterogen juftlashdan olingan avlodlarda bu ko'rsatkich mos ravishda  $53,4 \pm 5,83$ ;  $44,5 \pm 5,52$ ; va  $35,2 \pm 6,5\%$  ni tashkil qildi. Teri sifati bo'yicha yaroqsiz qo'zilar PSxQS ( $13,0 \pm 4,57$ ) va PSxShG ( $9,6 \pm 3,44$ ) juftlashdan olingan avlodlar ichida kopchilikni tashkil qildi. Bu holat bizning fikrimizcha, geterogen juftlashdan olingan avlodlarda sur rangining ifodalanishi, rangning otish keskinligi, rang tekisligi va teri sathida qiymatsiz gullarning tarqalishi sababli degan xulosa qilinadi.

Qoraqalpoq sur zot tipidagi po'lati sur rang-baranglikdagi qorako'l qo'ylarning jun mahsuldorligi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari ko'rsatkichlari quyidagi 9-jadvalda keltirilgan.

**9-jadval**

**Po'lati sur rang-baranglikdagi qo'ylarning jun mahsuldorligi, g**

Jun tipi	Jinsi			
	Erkak, n=12		Urg'ochi, n=45	
	$X \pm S_x$	$C_v, \%$	$X \pm S_x$	$C_v, \%$
To'qli juni	$865,3 \pm 37,3$	15,1	$798,3 \pm 15,9$	13,3
Bahorgi jun	$1312,5 \pm 62,2$	16,6	$1275,5 \pm 30,0$	15,7
Kuzgi jun	$763,5 \pm 34,8$	15,9	$708,5 \pm 14,85$	14,0

9-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki jun mahsuldorligi bo'yicha turli jinsli qo'ylar orasida ma'lum farqlanishlarni kuzatish mumkin. Har ikkala jinsli qo'ylarda qirqim natijalari bo'yicha jun mahsuldorligi erkak hayvonlarda

urg'ochi hayvonlarga nisbatan 67,0 grammga ustunligini ko'rish mumkin. Bunday farqlanishlar bahorgi va kuzgi qirqimda ham kuzatiladi. Shunga mutonasib ravishda 37,0; 55,0 grammga farqlanish kuzatildi.

Qorako'lichilikka ixtisoslashgan barcha xo'jaliklarga qo'yilgan asosiy talablardan biri, bu iqtisodiy samaradorligini oshirish hisoblanadi Po'lati sur rang-baranglikdagi qoraqalpoq sur qorako'l qo'ylarini urchitish va mahsulot etishtirishning iqtisodiy samaradorligi bo'yicha olingan ma'lumotlar 10-jadvalda keltirilgan.

#### 10-jadval

#### Po'lati sur rang-baranglikdagi sur qo'ylar mahsulotlarining ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi (ko'rsatilgan narxlar 2023 yil 1 yanvar holati bo'yicha)

№	Ko'rsatkichlar	Qorako'l terilari	Jun mahsuldorligi
1	Jami qorako'l terilari (dona) va jun (kg)	35	70
2	Bir dona qorako'l terisining va 1 kg junning sotish bahosi, so'm	350 000	3000
3	Jami qorako'l terilarining va junning sotish bahosi, so'm	12 250 000	210000
4	Bir dona qorako'l terisi va bir kg junning tannarxi, so'm	230 000	2650
5	Jami qorako'l terilari va junning tannarhi so'm.	8 050 000	185500
6	Olingan foyda/zarar (+,-), so'm	4 200 000	24500
7	Rentabellik darajasi, %	52,2	13,2

10-jadval ma'lumotlari tahlilida po'lati sur qorako'l terilarining sotilish bahosi 350 000 so'mni tashkil qilgan bo'lsa, uning tannarxi 230 000 so'm bo'ldi. Bir dona teri sotishdan 120,0 ming so'm sof foyda olinib, rentabellik darajasi 52,2% tashkil qildi. Po'lati sur rang-baranglikdagi qorako'l qo'ylarini urchitish yuqori samaradorlikka ega ekanligidan dalolat beradi. Jun sotish bo'yicha rentabellik darajasi 13,2% tashkil qildi. Qoraqalpoq sur qo'ylarini urchitishda asosan teri sotishdan daromad olinishini yaqqol ko'rsatadi.

#### XULOSALAR

1. Qo'ylarning eksterer, tana indeksleri ko'rsatkichlari bo'yicha yangi tug'ilgan davrda jinslar o'rtasida farqlanish mavjud. Bunday farqlanishlar tirik vazni bo'yicha ham kuzatilgan. Yosh dinamikasida farqlanish 18 oylik davrida 1,25 kg ni tashkil qilganligi aniqlangan.

2. Tajribadagi qo'ylarning tana harorati, yurak urishi va nafas olish tezligi bo'yicha olingan natijalar fiziologik me'yor holatda bo'ldi. Qon tarkibidagi eritrotsitlar tug'ilgan davriga nisbatan yoshi dinamikasida kamayishi kuzatilib, bunday holat leykotsitlarda ham kuzatilgan. Trombotsit va gemoglobin yoshi dinamikasida oshishi, tug'ilgan davrga nisbatan 18 oylik davrida bu ko'rsatkich 15,6% ga ko'payishi aniqlangan.

3. Gomogen va geterogen juftlashda rang-baranglikning naslga berilishi PSxPS juftlashdan olingan po'lati sur avlodlar 73,7% ni, yarim doira qalam gul tipli avlodlar 66,7% ni tashkil qilgan va va buni seleksiya ishlarida inobatga olish zarurligi ta'kidlangan.

4. Po'lati sur rang-baranglikdagi qo'zilar jun tolasiga yuqori va o'rta (96,6%) darajadagi ipaksimonlik hamda kuchli va o'rta yaltiroqlik (86,7%) xosligi, bu ko'rsatkichlarning gul tiplari bilan bog'liqligi, yarim doira qalam gul tipida yuqori va o'rta ipaksimonlik darajasi 70,3 % ni tashkil qilganligi qayd etilgan.

5. Muhim ko'rsatkich bo'lgan gullar uzunligi qovurg'asimon qalam gul ( $28,2 \pm 0,43$  mm) va yarim doira qalam gul tipidagilarida ( $27,8 \pm 0,45$  mm) boshqa turlariga nisbatan uzun bo'lishi aniqlangan. Gullar kengligi yassi qalam gul tipida  $11,0 \pm 0,16$  mm ni, qovurg'asimon qalam gul tipida  $9,8 \pm 0,09$  mm ni, yarim doira qalam gul tipida  $8,9 \pm 0,09$  mm ni va o'sik gulli tipida  $8,2 \pm 0,09$  mm ekanligi aniqlangan.

6. Qoraqalpoq sur terilari uchun o'rta hajmdagi sathga ega terilar ( $73,3 \pm 8,08 - 76,7 \pm 7,72$ ) yuqori darajaligi bilan tavsiflangan. Po'lati sur qorako'l qo'ylari boshqa rang-baranglikdagi qo'ylarga nisbatan jussasi maydaroq bo'lib, tug'ilgan qo'zilar teri sathiga ham o'z tasirini ko'rsatishi qayd etildi.

7. Sur terilariga gul naqshlarining yondosh-konsentrik va yondosh-to'g'ri joylashishi (63,4%) xos bo'lib, mustahkam gullar salmog'i  $60,0 \pm 8,94\%$  ni tashkil etishi kuzatilgan. PSxPS juftlashdan olingan avlodlarda 3/10 va 4/10 ko'rsatkichdagi surlik darajasidagi avlodlar 80,7% ni, a'lo va o'rta ifodalanishidagi avlodlar 93,0% ni, kuchli va o'rta o'tish keskinligidagi avlodlar 96,5% ni, rang tekis avlodlar 93,0% ni, elita va 1-sinfl qo'zilar 70,2% ni tashkil qilgani aniqlandi.

8. Jun mahsuldorligi bo'yicha erkak hayvonlarda urg'ochi hayvonlarga nisbatan ustunligi aniqlangan. Bunday farqlanishlar jun morfologiyasida bahorgi qirqimdagi junda 86,4% oraliq va tivit jun tashkil qilgan bo'lsa, to'qli junidan 4,1% ga va kuzgi qirqim junga nisbatan 6,1% ga ustunlik qildi. Bunday ustunliklar jun uzunligi va diametrida ham kuzatilgan.

9. Nasl uchun elita sinfi, yarim doira qalam gul tipga mansub, teri rangi tekisligi yuqori, jun tolasiga kuchli yaltiroqlik, yuqori va o'rta ipaksimonlikka ega, teridagi gullar yondosh-konsentrik, yondosh-to'g'ri bo'lgan, surlik darajasi 3/10 va 4/10 darajasidagi, mustahkam konstitutsiya tipidagi qo'zilarni nasl uchun qoldirish zarur.

10. Qoraqalpoq sur po'lati rang-baranglikdagi qo'ylarini urchitishning iqtisodiy samaradorligi qorako'l terisi bo'yicha baholanib, bir dona qorako'l terisining sotish bahosi 350,0 ming so'mni tashkil qilgan va yuqori samaradorlikka (52,2% rentabellik) ega bo'lishi aniqlangan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
АГРАРНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ИНСТИТУТ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА И  
АГРОТЕХНОЛОГИЙ**

**ОСПАНОВ АСЕМХАН КАДИРХАНОВИЧ**

**ПЛЕМЕННЫЕ И ПРОДУКТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ  
КАРАКУЛЬСКИХ ОВЕЦ КАРАКАЛПАКСКОГО СУРА СТАЛЬНОЙ  
РАСЦВЕТКИ**

**06.02.03 – Частная зоотехния. Технология производства продуктов животноводства**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером В2022.1.PhD/Qx877.

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Каракалпакском институте сельского хозяйства и агротехнологий.

Автореферат доктора философии (PhD) на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета [www.tdau.uz](http://www.tdau.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyouet» ([www.ziyouet.uz](http://www.ziyouet.uz)).

**Научный руководитель:** Турганбаев Рузимбай Уразбаевич  
доктор сельскохозяйственных наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Газиев Адхам  
доктор сельскохозяйственных наук, профессор

Бойматов Отабек Сабохиддин угли  
доктор философии сельскохозяйственных наук (PhD)

**Ведущая организация:** Научно-исследовательский институт  
животноводства и птицеводства

Защита диссертации состоится «19» 08 2025 года в 14<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 по присуждению учёных степеней при Ташкентском государственном аграрном университете. (Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, 2-дом. Тел: (+99871) 260-48-00; факс: (+99871) 260-38-60; e-mail: [tuag-info@edu.uz](mailto:tuag-info@edu.uz)); Административное здание Ташкентского государственного аграрного университета. 2 этаж, конференц-зал).


С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного аграрного университета (зарегистрировано под номером № 553510). Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, дом-2. ИРЦ ТашГАУ, 1-этаж. Тел.: (+99871) 260-50-43.

Автореферат диссертации разослан «30» 07 2025 года.  
(реестр протокола рассылки № 15 от «26» 06 2025 года)



  
**Ш.Р.Умаров**  
Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, д.с.х.н., профессор

  
**Ш.А.Абдурасулов**  
Учредитель секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, д.в.н., доцент

  
**К.Ж.Шакиров**  
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, д.с.х.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора (PhD) философии)**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В настоящее время в 190 странах мира разводятся более 570 культурных пород овец и коз. Поголовье домашних овец и коз «...в мире достигает 1 млрд 867 млн 875 тыс., а коз – 826 млн 482 тыс». Подобная многочисленность и повсеместное распространение домашних овец и коз объясняется высокой экономической ценностью данного вида животных. Овцеводство и козоводство дают народному хозяйству шерсть, пух, шубные и меховые овчины, смушки, каракульчу, сычуги а также мясо, молоко, жир и другую продукцию. Одной из наиболее актуальных задач является удовлетворение спроса мирового рынка на качественные шкурки и шерсти каракульских овец за счет эффективного использования высокой жизнеспособности и адаптивности каракульской породы овец и поднятия ее репродуктивных, продуктивных и биологических характеристик на более высокий уровень.

В странах мира с развитым овцеводством проводятся ряд исследований по разработке и внедрению новых методов повышения мясной, молочной, шерстяной и меховой продуктивности овец а также по созданию новых пород и породных типов овец дающих качественную продукцию. В частности, в настоящее время совместно с учеными Российской Федерации и Республики Казахстан с целью восстановления традиционного пастбищного разведения проводятся научные исследования по созданию высокопродуктивного типа каракульских овец, хорошо адаптированных к природным условиям. В последние годы особое внимание уделяется созданию типа каракульских овец, адаптированных к различным экстремальным природно-климатическим условиям и обладающим высокими породными и продуктивными характеристиками.

